



## BADIIY HIKOYADA RAMZIY-MAJOZIY TALQIN VA MIFOLOGIK USLUB TABIATI.

*Toirova Zubayda Omongaldiyevna*

*Urganch Ranch texnologiya universiteti*

*“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası o‘qituvchisi*

**Annatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ramziy-majoziy talqin va mifologik uslubning estetik va badiiy xususiyatlari tahlil etiladi. Asad Dilmurodning “Qo‘ng‘iroq” hikoyasi asosida kichik janrning chuqur falsafiy-fikriy qatlamlari, diniy-ilohiy kiritmalar, xalq og‘zaki ijodidagi timsollar orqali inson ruhiy olamining murakkab jihatlari ochib beriladi. Hikoya qahramoni – Tugalboy muallim obrazi orqali jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy, psixologik va axloqiy muammolar yoritiladi. Muallif hikoyada mifologik strukturalar, ramziy obrazlar, tush motivlari orqali qahramonning ichki kechinmalarini, tafakkur tahlillarini tasvirlaydi. Asarda polifonik yondashuv, tushunilmagan sirli holatlar, zamon va makon noaniqligi kabi xususiyatlar yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubini belgilaydi. Shuningdek, maqolada hikoya shakllanishidagi poetik g‘oya, obrazlar harakati va syujet kompozitsiyasi ham ilmiy-nazariy asosda sharhlanadi.

**Kalit so‘zlar:** ramziy-majoziy talqin, evrilishlar, mifopoetik qarashlar, ijodkor dunyoqarashi, shaxs konsepsiyasi, milliy g‘oya, ramziy qahramon.

**Abstract.** This article analyzes the aesthetic and artistic features of symbolic-figurative interpretation and mythological style in modern Uzbek storytelling. Based on the story "The Call" by Asad Dilmurod, the complex aspects of the human spiritual world are revealed through the deep philosophical-ideological layers of the small genre, religious-divine references, and symbols in folk oral art. The image of the hero of the story - Tugalboy, the teacher, illuminates the social, psychological, and moral problems existing in society. The author describes the hero's inner experiences and analysis of thought through mythological structures,



symbolic images, and dream motifs in the story. Features such as a polyphonic approach, incomprehensible mysterious situations, and the ambiguity of time and space in the work determine the writer's unique artistic style. The article also comments on a scientific-theoretical basis on the poetic idea in the formation of the story, the movement of images, and the composition of the plot.

**Keywords:** *symbolic-figurative interpretation, evolutions, mythopoetic views, creative worldview, concept of personality, national idea, symbolic hero.*

**Абстрактный.** В статье анализируются эстетические и художественные особенности символично-образной интерпретации и мифологического стиля в современном узбекском сказительстве. На примере повести Асада Дильмурада «Колокол» сложные аспекты духовного мира человека раскрываются через глубокие философские и интеллектуальные пласты малого жанра, религиозные и божественные отсылки, символы устного народного творчества. Главный герой рассказа, учитель Тугалбой, проливает свет на социальные, психологические и моральные проблемы, существующие в обществе. Автор описывает внутренние переживания и психические анализы персонажа через мифологические структуры, символические образы и мотивы сновидений в рассказе. Такие черты, как полифонический подход, необъяснимые загадочные ситуации, неоднозначность времени и пространства в произведении, определяют уникальный художественный стиль писателя. В статье также на научно-теоретической основе анализируется поэтическая идея, движение персонажей, композиция сюжета в формировании рассказа.

**Ключевые слова:** *символично-образная интерпретация, эволюции, мифопоэтические воззрения, творческое мировоззрение, концепция личности, национальная идея, символический герой.*

O'zgarib borayotgan dunyo sarhaddari badiiy adabiyot oldiga – mif, din, dunyo va falsafiy-estetik qamrov tig'izlashuvini hamda psixologik nuqtai nazar



yaxlitlashuvini ko'ndalang qo'yimoqda. Chunki har qanday badiiy matnda hikoyanavis o'zi sahnad rol ijro etayotgan san'atkorni yodimizga soladi. Mana shu tamoyil Asad Dilmurodning o'nlab hikoyalarida yaqqol seziladi. Yangilanayotgan badiiy tafakkur miqyoslarini anchayin kengaytirishga hissa qo'shayotgan N.Eshonqul, A.Dilmurod, I.Sulton, U.Hamdami talqinlarida timsollar – kodlar va ifodalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu haqda prof. J.Eshonqul shunday idroklaydi: “Timsol o'zi nima? Biz biron asarni o'qiganimizda yoki xalq og'zaki ijodi namunasini tinglaganimizda gap A haqida borayotgan bo'lsa ham, asl ma'no B ga tegishli ekanligini his etib turamiz. Biz buni istamasak-da, ichki tuyg'ularimiz A aslida B ekanini takrorlayveradi. Chunki timsolni aqlimiz emas, tuyg'ularimiz tez angelaydi. Inson o'zi kashf etgan qo'rquv, vahm timsollarni, hali abstrakt mushohada qila olmagan uchun jonli holda tasavvur qilib, mahluq va yirtqichlar shaklida ramzlashtirgan. Timsollar inson ongining tinimsiz ishlashga yo'l ochgani uchun, ong o'z navbatida ojizlikdan qutulish choralarini izlagan. Natijada vahm va yovuzlik timsollari bo'lgan mahluqlarni yenguvchi, o'ziga bo'ysunduruvchi qahramon tug'ilgan”[3.81-81]. Haqiqatdan ham, timsollar xalq og'zaki ijodidan – yozma aadabiyotga ba'zan mifologik syujet tarzida kirishi, insonni tashqi olam va o'zi yashayotgan muhit bilan uzviy bog'lab turuvchi adabiy vosita bo'lishi tayin. Ana shu timsollar – Asad Dilmurod badiiy izlanishlarida yagona estetik g'oyaning syujetga aylanishida, uslubning xilma-xillashuvi, diniy-ilohiy kiritmalar, bid'at unsurlarga ishonuvchan olomon qiyofasini ham tipiklashuviga olib keladi.

“Dunyo adabiyotida prozaning o'rni haqida gap borganda uning taraqqiyotini kuzatayotgan har bir o'quvchi hikoyachilikning tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligini va bu kichik janrda ham boshqa epik janrlardagidek salmoqli hayotiy muammolar hal qilib berilayotganini ko'rmasligi mumkin emas. Inson o'zidagi evrilishlar, o'zligini anglash tuyg'usining borgan sari kuchayishi odamlararo munosabatlardagi murakkablikni, shaxs va voqelik, jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni haqqoniy, real aks ettirishni taqoz qiladi”[5.]. Mana shu jarayonda kichik janrda “katta gap aytish” mahorati har bir ijodkor



qiyofasini belgilovchi badiiy uslub kriteriyalari bilan jonlantiriladi. Ayni paytda, hikoya va qissa orasidagi farqlanishlar, kichik janrning mifopoetik imkoniyatlarini yangilash jahon adabiyoti bilan bo'ylashish yo'sinlari sari harakatlanadi.

Adibning "Qo'ng'iroq" nomli hikoyasida sodda va ishonuvchan, hayotda oddiy turmushni o'nglash payida doim o'zgalarga "chuv" tushib yurgan qahramon intellekti badiiy uslubning ijodkor dunyoqarashi-yu shaxs konsepsiyasi sintezini yaxlitlashtiradigan tamoyilga evrilish nuqtalarini ifodalagan manzaraga duch kelamiz. Hikoyaning "Qo'ng'iroq" deb nomlanishi asar qahramonining bir paytlar shu bolalik damlarida sovda-sotiq ishlari bilan mashg'ul bo'lishga qiziqishi, inson tafakkuridagi ong osti hislarining kutilmaganda uyg'onish moduslarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi: "Yarim kechada uyqusi qochgan Tugalboy muallim ko'rpani siltab ustidan uloqtirdi, so'ng bir chirillab yig'layotgan Maqsudjonga, bir uni ovutolmay yuragi qonu zardobga to'lgan Shafobatga parishon tikildi. Endigina uchni qoralagan yolg'iz farzandning boshi darddan chiqmadi, Xudodan shifo so'rayverib xotini ayniqsa qiynalib ketdi. Tugalboy visol damlaridan birida Shafosatni hazilu chin aralash ko'nglim guli, muhabbatim qo'riqboni deb atagandi, mazmunli o'tgan to'ydan keyin ham uni, shirin muomalasini ayamay, iloji boricha kaftida ko'tarishga urindi, peshonasiga aqlli-hushli, husni malohatda tengsiz ayol bitilgani uchun Tangriga shuk-rona aytardi. Lekin iloj qancha, dunyo biri kam-da, bir yostiqa bosh qo'yishganiga yetti yildan ziyodroq vaqt o'tsa ham tirnoq buyurmadi, eskichayu yangicha rasmu rusumlardan najot istab tinkai madorlari quridi. Oxiri taqdirga tan berishgach, buni qarangki, ko'p o'tmay xonadonda chaqaloq "inga"ladi". Otalik zavqu shavqi buyurgan Tugalboy o'shanda osmon-u falakda parvoz etayotgan qushga o'xshardi. So'ng kuchli bo'ronda qanotlari singandek nogoh quyiga sho'n-g'idi. Xudodan tilab olingan go'dak chillasi chiqmay kak-radek ko'karib yig'laydigan bo'ldi".[1.265]



Hikoya ekspozitsiyasida voqelik sodir bo'lish sabab va oqibati haqida so'z borsa-da, adib syujet liniyalarini – asosan tun obrazi bilan bog'liq ravishda ochiqarmoqda. Bolaning yig'isi, ancha yillar tirnoqqa zorligi, uning nimjon bo'lib tug'ilishi hamda Tugalboy muallim qismatining nechog'li azob-uqubatlarda o'tib kelayotganidan dalolat bermoqda. Hikoyada yozuvchi diniy-ilohiy kiritma voqelarni mifologik yo'sinda syujet qisimlariga singdirib yuboradi. Ayni damda adibning universalizmga katta e'tibor berishi, F.Kafka, A.Kamyu, L.X.Borxes, P.Koelo badiiy uslubini yodimizga solsa-da, milliy g'oya va tafakkur sarhadlarini umumlashtirishga yo'naltiriladi. O'zbek xalqida bola tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi. Shunday bo'lsa-da, Tugalboy muallimning tirikchilik vajidan meva-cheva savdosi bilan shug'ullanishi, har gal maktab yonidan o'tganida qulog'iga begunoh bolalarning qiyqiriqlari-yu, qo'ng'iroq jarangi uni olis o'tmish xotiralari sari yetaklaydi. Uning soddaligi va ishonuvchanligidan qishloqdagi bozorga chiquvchi chayqovchilar ko'p foyda ko'radilar. Shafoat esa unga vafodor va o'zi kabi ishonuvchan ayol sifatida o'quvchi qalbidan achinish hissini uyg'otadi. Mana shu talqin ranginlashuvi yozuvchining inson qismatini butun-murakkabligicha tasvir etish prinsipini namoyon etishida ko'zga tashlanadi.

Badiiy uslubning tig'izlashuvi va mavhumlikdan murakkablik sari harakati syujet yangiligini tayin etadi. Shuni qayd etish lozimki, "asar shakllanish jarayonida yozuvchi ilhom bilan mehnat qiladi. Dastlabki ko'tarinki holat keyinroq tartibga tushadi, ijodiy xayollarning parvozi asta-sekin tiniqlashadi. Yozuvchining talant kuchi, diqqati, butun borlig'i bir markazga to'planadi. Bo'lajak qahramonlar aniqlanadi. Asarning asosiy poetik g'oyasi, uning obrazli ifodalanishi ko'zga tashlanadi va shu doira atrofida obrazlar harakat qila boshlaydilar. Xarakterlar tasviri ular xatti-harakatlari va psixologiyalarini asoslashning yo'llari, fabula rivojining juda ko'p variantlaridan (Tolstoy aytganidek, milliondan biri) eng ma'quli tanlanadi. Qisqasi, san'atkor ongida yaxlit yaratmoqchi bo'lgan asarining nusxasi, badiiy modeli yaratiladi. Endigi gap yaratilajak, tug'ilajak asarining hayotiyiligini, jonliligini ta'minlovchi yozuvchi qalbining qon tomiriga, san'atkorning so'z sehriga, o'tkir fahmiga, ajoyib



ilhomiga... yana va yana juda ko'p psixik jarayonlarga bog'liqdir"[6.133-134].  
Haqiqatdan ham, Prof.H.Umurov masalaga diqqat bilan talqiniy yondashadi. Buni  
keyingi tasvirlar simfoniyasida ham anglash qiyin emas:

“Tugalboy tong azonda tuman markaziga oshiqdi, it egasini tanimas to's-  
to'polon bozorga oralar ekan, shovqin-suron orasidan bot-bot maktab  
qo'ng'irog'i jiringlashi eshitilardi. Ajib ohang sehrini tuygani sayin necha yil  
mobaynida e'zozlagan kasbini begona hayot tarziga almashtirish uchun bu yerga  
ataylab qadam ranjida qilgandek xijolat cheka boshladi. Tugalboy betartib kappon  
bo'ylab onasidan adashgan buzoqday uzoq tentiradi, oxiri tez-tez Xudoni yod  
etayotgan cho'pdek ozg'in ko'sa kishi atrofida o'ralashdi. So'ng butun bozorda  
bundan sarasi yo'q deb ta'riflagan g'alvirak yong'og'iga talabgor bo'ldi. Agar  
ikki tonnadan ziyod shu yukni shaharga eltib sotsa tuzukkina foyda qolishi  
mumkin – ichida bir ovoz shunday demoqda edi. Faqat ish bexosdan teskari  
tomonga aylandi, yukni shahar bozoriga tushirgan hamono kimdir g'alati gap  
aytdi. Avval ishonmadi, yukni nazardan kechirgach, qoq boshiga so'yil tekkan  
kabi dovdirab qoldi. Endi arzu dodini kim eshitadi, hayhot, barcha xalta dabdala  
bo'lib, bozor lahjasi bilan aytganda, ustakorlik bilan “o'qlab” qo'yilgandi, ya'ni  
usti toza-yu, osti sidirg'a toshday qattiq ko'rak edi, mag'zini ochofat kuya-mita  
ilma-teshik qilib tashlagan...”[1.265-267]

Keltirilgan parchada Tugalboy muallimning ikkinchi hayoti – savdo-sotiq  
tashvishlariga sho'ng'ishi hamda bu kasb-korning hiyla qiyinchiliklari evaziga  
boshiga yog'ilayotgan – qo'ng'iroq sadolari, maktabdan, (ta'lim va ilm)dan  
uzilish, oilaning tirikchiligi bois (o'tish davri muammolari) ham syujet  
chiziqlarini birlashtirishga, yozuvchining badiiy uslubining mukammalashuviga  
etaklaydi. Ayniqsa, istiqlol davri nasrida U.Hamdani, N.Eshonqul kabi yosh avlod  
vakillari ijodida turlicha rakurslarda inkishof qilinishi yuqoridagi hikoya  
tagma'nosini to'laqonli quvvatlaydi. Tugalboy muallimning folbinga ishonishi,  
xayolida, tushida oyog'ini jondor kemirib ado qilishi, “sirli qo'ng'iroq”ning  
bexosdan bezovta qilib, qulog'i tagida jaranglashi, betob o'g'lining tashvishi bir



tomonda qolib, o'z dardisarliligini hamma oldida aytishga, qulayroq davolanishga imkon topolmasligini ko'rsatib beruvchi tasvirlar yanada hikoyani jonliligini yuzaga chiqarishga hissa bo'lib qo'shiladi. Yozuvchi bu erda o'qituvchining saviyasini ko'rsatishni maqsad qilar ekan, sobiq ittifoq davridan qon-qonimizga singib ketgan – olomonchilik kayfiyatining hatto ziyoli inson boshiga tushganda ikkilanishlar orasida qolishi hech gap emasligini ko'rsatishdan ham iborat bo'lib tuyulmoqda. Negaki, yozuvchi bilimli va tafakkurli inson boshqalardan ajralib turishi tayin degan o'tkir ijtimoiy-siyosiy aqidani ilgari surmoqda. Bunday tavsiflar yozuvchining boshqa hikoyalarda ham ko'plab uchrashini unutmaslik lozim.

Prof.Sh.Doniyorova uslub haqida quyidagi mulohazalarini ifodalab: “Yozuvchining uslubi va badiiy mahorati masalasi adabiyotshunoslikda hamisha dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Uslub yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatadigan adabiy hodisa bo'lsa, qahramon obrazi badiiy asar mohiyatini oydinlashtirishda muhim estetik ijtimoiy-badiiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Demak, individual uslub va qahramon obrazi talqinini tadqiq etish yozuvchiga ijtimoiy voqelik haqida, davr kishilari, ularning hayoti, faoliyati va o'y-kechinmalari to'g'risida o'ziga xos badiiy fikr yuritishi hamda poetik idrok etilgan voqelikni badiiy taahlil qila olish xususida muayyan nazariy umumlashmalar chiqarish imkonini beradi”[2.68]. Har bir ijodkorning individual uslubga ega bo'lishi uchun tinimsiz mehnati va uning natijadorligi mifopoetik talqin qamrovini ham yangilanishiga olib keladi. Shuning uchun ham, Asad Dilmurod “Qo'ng'iroq” hikoyasida Tugalboy muallim va Shafokatxon obrazi negizida Maqsudjon qismatining uzoq kutilgan orzu-havas mevasi ekanligini, bu ayanchli mushkulotlardan unumli foydalanayotgan – XX asr olomoni qiyofasini gavdalantirishni maqsad qilganligida yaqqol seziladi. Agar ongli va tafakkurli inson bo'lganida, insu-jins, irim-sirimlarga unchalik ishonmaslikni, har qanday dardning davosi “Qur'on” ekanligini tushunib etgan bo'lardi. Mana shu epizodlar negizida yozuvchi millat boshiga tushgan og'ir sinovlarning hali-veri yo'qolib ketmaganini, bid'at sanalgan odatlardan odamzod o'zini saqlay bilishi, botinida



va ruhida – Allohga bo‘lgan ishonch, ulkan muhabbat kezishini birinchilardan bo‘lib o‘zgalarga ham tushuntirardi. Tugalboy muallim kabi odamlar jamiyatda yo‘q deb o‘ylaysizmi? Hikoyadagi ikkita epizod va universal mifopoetik talqin ustuvorligi, syujet chiziqlarini bir-biriga payvandlashda, hamda tush motivining “ochqich kalit” sifatida ishtirokni tayin etishida yuzaga qalqib chiqadi. Ayni damda, yozuvchi-o‘quvchi orasidagi mavhum tushunchalar, dialoglarning deyarli yo‘qligi, har qanday voqelik faqat bosh qahramon Tugalboy muallim ongida ro‘y berayotgani, polifonik nutq qamrovining ustuvorligini reallashtirishga xizmat qilmoqda. Buni quyidagi lavhada tiniqrov his etishimiz mumkin bo‘ladi: “Shafolat befahm emas-da, ertalab bir qarashdayoq ahvolini sezdi va nafsoniyatiga tegmaydigan qilib gap kavlati. Oxiri noiloj yorildi, faqat tovonlari-ni ishg‘ol qilgan cho‘g‘ nima balo ekanini umuman tushuntirib berolmadi. La’natini unutishga tirishib, sarmoya tiqilgan charm sumkani yelkasiga osdi-da, yana tuman markaziga shoshildi. Eshikdan chiqar payti Shafolat ehtiyot yuzasidan avval Odinaqul oldidan o‘tgani ma’qul ekanini ta’kidlagach, rejasi o‘zgardi.

Odinaqul top-toza va silliq tovonlariga qayta-qayta jiddiy nigoh yugurtirdi, barmoqlari bilan o‘rtasi va girdlarini goh avaylab, goh qattiq bosib-bosib ko‘rdi, achishib kuyishuv sababi xususida tasavvur beradigan nishona topilmagach, asabni tinchituvchi dori ichib turishni buyurdi. To‘g‘risi, Odinaqulning muomalasidan barcha xavotiri tumandek tarqadi va ancha yengil tortdi, faqat asab bilan bog‘liq bo‘lsa bemalol davosini qilish mumkin degan o‘yda, dori qog‘ozini g‘ijimlab uloqtirdi-yu, tijoratni yanada tuzukroq yo‘lga qo‘yish niyatida avtobus bekatiga burildi”. [1.269-270]. Hikoyaning mifologik talqin etilishiga sabab – Tugalboy muallimning, ayniqsa, o‘qituvchi-murabbiyning “adabiy tip” sifatida olingani bilan belgilanadi. Odinaqul ham kodlashtirilgan *ramziy* qahramon. Uning diyonatidan Xolbibini xolaniki tubdan farq qiladi. Odamlarni shu yo‘sinda “bir-ikki” dori yozib berishi bilan davolay oladigan, har qanday bemor o‘zining ichki ishonchi evaziga yaxshi bo‘lib keta olishini yozuvchi boshqa tartibda namoyon qiladi. Hikoyadagi qahramonlar eskichasiga ham, yangichasiga ham muolajani olishda davom etadi. Bu erda Tugalboy muallim qulog‘iga





chalanayotgan ovoz, eng avvalo, istiqlol ovozi sifatida qabul qilish ishonchni oqlaydi. Negaki, “sirli qo‘ng‘iroq” muallim ruhiyatida ro‘y berayotgan tizginsiz mulohazalar mahsuli ekani va bu jarayonning ruhiy-ijtimoiy sabablari jamiyatning “kasal”ga chalinib, milliy mental xususiyatlarning tobora “o‘lim” yoqasiga kelib qolganidan shahodat beradi. Istiqlol yillari arafasida ko‘pchilik tizim ishdan chiqqanligi, Vatan ozodligi har narsadan ustun, uni yangicha formatda rivojlantirish muhimligi ayonlashadi. Bir oila timsolida – bir jamiyat, makon va zamon aniq belgilanmagan bozor va qishloq negizida ro‘y berishida ham alohida bir ramziy detalni uchratish mumkin. Yozuvchi Asad Dilmurodning va o‘zining boshqa-da salafalari ijodida yorqin bo‘yoqlarda namoyon bo‘layotgan har bir detal syujet, g‘oya va individual uslub yaxlitlashuvi bugungi mifologik talqin ustuvorlashib borayotganidan dalolatdir. Shuning uchun ham, joriy adabiyotshunoslikda ramzlashgan tasvir etikasi insoniyatning ancha taraqqiy etib, ilgari ketganligini izohlaydi. Zotan, har bir detal strukturasi aks etgan falsafiy-psixologik kechinmalar yuqoridagi ramziy-majoziy detallar negizida insoniyat yangi davrga oyoq qo‘yganligini, uning har bir talqinida zamondosh odam tiynati ifodalanayotgani sezishi qiyin emas.

Xulosa shuki, Asad Dilmurod “Qo‘ng‘iroq” hikoyasida azim tarixiy hodisa, jadid bobolarimizning orzu-umidlarining ro‘yobga chiqayotganidan, har bir kasb egasining tafakkuri chandon yuqori bo‘lishiga ishonganini tasdiqlaydi. Istiqlol o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilgan hodisa emas! Buning uchun badiiy tafakkur ham qanchadan-qancha ziyo istovchilarga mayoq vazifasini o‘taganligini kafolatlaydi. Yozuvchi tush, ramz va detallar tig‘izlashuvi negizida shaxs konsepsiyasi – millat sajiyasi bilan uzviy ekanligini isbotlay olganligida ko‘rinadi. Bu jarayon yozuvchi poetik mahoratining chuqurlashib ketganligini, Sharq badiiy falsafiy-psixologik kriteriyalariga to‘laqonli javob berishini tayin eta olganligida namoyon bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar .**

1. Asad Dilmurod. Xilvat. –T: “Yangi asr avlodi”. 2017. –B.265





2. Doniyorova Sh. Omon Muxtor ijodida yangicha talqinlar. –T: “Turon Zamin-Ziyo”. 2017. –B.68.
3. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi. Nasaf. 1999. –B.81-82.
4. Qo‘chqorova M. Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy shartlilik. Filol.fan.dok. diss.si. –T., 2020.
5. Saitov S. O. Genri va o‘zbek adabiyoti. –Buxoro: “Durdona”. 2024. –B.
6. Umurov H. Saylanma. 5-jild. –Samarqand. 2011. –B.133-134.
7. *Xolmirzaev Sh. Hikoya haqida// Sharq yulduzi. 1971 yil, 1-son.*
8. Xurshid Do‘stmuhammad. Milliy hikoya: izlanishlar, yutuqlar, istaklar. Ozod vatan sog‘inchi. Adabiy tanqid. Toshkent “Adib”2004.